



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRINING BUYRUG'I

318-son

20~~23~~-yil “06” noyabr

Toshkent shahri

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”ni o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 6-iyuldaggi PF-6257-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2023-yil 23-avgustdaggi 10-sonli bayonnomasi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirining “Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish to'g'risida” 2019-yil 20-avgustdaggi 416-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash” kuni munosabati bilan vazirlik tizimida joriy yil 10-noyabrdan 10-dekabr kuniga qadar “**Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi**”gi o'tkazilsin.

2. Vazirlik tizimida o'tkaziladigan “**Ochiq eshiklar kuni**” tadbirining reglamenti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi (podpolkovnik S.Giyasov), Axborot xizmati (kapitan M.Sadikov) hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar boshliqlariga:

hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar o'z faoliyatları ochiqligini ta'minlash, korruption xatarlarni oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish kabi masalalarga bag'ishlangan “**Ochiq eshiklar kuni**” tadbirlari o'tkazilsin;

“**Ochiq eshiklar kuni**” tadbirlari hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar faoliyatining ochiqligi, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari jurnalistlar, blogerlar va fuqarolarni qiziqtirgan savollarga javob olishlari maqsadida tashkil etilsin;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida “**Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik**” mavzusida huquqni muxofaza qiluvchi organlar vakillarini jalb qilgan holda vazirlik faoliyatidan kelib chiqib, ijodiy (amaliy) yondoshuv asosida tizimda korruption xavf-xatarlarning oldini olish va

bartaraf etish, zamonaviy aksilkorrupsion tizimlarni joriy etish kabi masalalarni qamrab oluvchi davra suhbatlari, ma'naviyat soatlari va boshqa tadbirlarni o'tkazish, videorolik, infografikalar, bannerlar tayyorlash ishlari amalga oshirilsin hamda vazirlik tizimidagi o'quv muassasalarida ochiq darslar o'tkazilsin:

oylik tadbirlarni sifatli va samarali tashkil etish choralari ko'rilsin hamda mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng yoritilib borilishi ta'minlansin;

oylik tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar **joriy yilning 2 dekabr kuniga qadar** (2-ilovadagi jadvalga muvofiq) vazirlik korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasiga himoyalangan "E-xat" tizimi orqali taqdim etilsin;

"Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarida vazirlik tizimidagi maxfiy va shaxsga oid hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlardan foydalanmaslikka e'tibor qaratilsin;

oylik doirasidagi tadbirlarni sifatli amalga oshirish hamda ushbu buyruq ijrosi ta'minlanishiga birinchi rahbarlarning shaxsan javobgarligi belgilansin.

4. Moliya-iqtisod boshqarmasi (podpolkovnik I.Maxmudov) hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar boshliqlariga **"Ochiq eshiklar kuni"** tadbirida tegishliliqi bo'yicha vazirlikning budgetdan tashqari maxsus jamg'armasi yoki hududiy boshqarpma va tarkibiy tuzilmalarning budgetdan tashqari riaojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kofe-breyk tashkil etilsin.

5. Axborot xizmati (kapitan M.Sadikov), Birlashgan tahririyat (xizmatchi A.Suyunov):

vazirlik faoliyati, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlar hamda vazirlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash yuzasidan OAV, jurnalist va blogerlar hamda keng jamoatchilikni xabardor etish va ularni qiziqtirgan savollariga javob olishlari ta'minlansin;

vazirlik tizimida **oylik** doirasida amalga oshirilgan ishlar va o'tkazilgan tadbirlar ommaviy axborot vositalarida, vazirlik veb-saytida, "Vaziyat" gazetasi va "Muhofaza+" jurnalida yoritib borilsin.

6. Ish yuritish, ma'lumot va arxiv ishlari bo'limi (kapitan N.Istamov):

ushbu buyruq hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarga himoyalangan "E-xat" tizimi orqali yuborilsin va "Germes" axborot tizimiga joylashtirilsin;

buyruq barcha shaxsiy tarkibiga yetkazilsin.

7. Mazkur buyruq talablarining bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rribosari-Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov zimmasiga yuklansin.

Vazir
general-mayor

 A. Qo'idoshev

Favqulodda vaziyatlar vazirining
2023-yil 6 noyabrdagi 3/8-sonli
buyrug‘iga ilova

“Ochiq eshiklar kuni” tadbirlarining reglamenti

O‘tkazish vaqtি	Amalga oshiriladigan tadbirlar
10:00-10:20	Tashrif buyurilgan boshqarma/tarkibiy tuzilma faoliyati haqida qisqa tanishuv.
10:20-11:15	Boshqarma/tarkibiy tuzilmaning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati haqida taqdimot o‘tkazish.
11:15-12:00	Boshqarma/tarkibiy tuzilma faoliyatining ochiqligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar taqdimoti.
12:00-13:00	Savol-javoblar.
13:00	Kofe-breyk.

Favqulodda vaziyatlar vazirinining
2023 yil 6 noyabrdagi 318-sonli
buyrug'iga 2-ilova

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida
“Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari haqidagi

MA'LUMOT

T/r	Hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar nomi	Ochiq eshiklar kuni tadbirlari			“Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak goldiraylik” tadbirlari	Shundan
		Tadbirlar soni	sh/t	Jurnalist, blogger soni		